
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI

Ishchanova Oybika Farhod qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat faxriylarini e’zozlash tizimining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda faxriylarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, tarixiy xotirani saqlash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, “Nuroniy” jamg‘armasi, mahalla institutlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilgan tadbirlar, memorial infratuzilma, ta’lim tizimi hamda ommaviy axborot vositalarining o‘rni ochib berilgan. Xorazm viloyati tajribasi faxriylarni e’zozlashning kompleks ijtimoiy-ma’naviy modeli sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, faxriylar, mehnat faxriylari, tarixiy xotira, Xorazm viloyati, ijtimoiy himoya, vatanparvarlik, “Nuroniy” jamg‘armasi, memorial infratuzilma, ma’naviy-ma’rifiy siyosat.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы формирования и развития системы почитания участников Второй мировой войны и ветеранов труда в Хорезмской области в годы независимости. В исследовании освещаются основные направления государственной политики, направленной на материальную и духовную поддержку ветеранов, усиление их социальной защиты, сохранение исторической памяти и воспитание молодого поколения в духе патриотизма. Также раскрывается роль фонда «Нуроний», институтов махалли, организаций гражданского общества, мемориальной инфраструктуры, системы образования и средств массовой информации в данном процессе. Опыт Хорезмской области рассматривается как комплексная социально-духовная модель почитания ветеранов.

Ключевые слова: Вторая мировая война, ветераны, ветераны труда, историческая память, Хорезмская область, социальная защита, патриотизм, фонд «Нуроний», мемориальная инфраструктура, духовно-просветительская политика.

Abstract: This article analyzes the stages of formation and development of the system for honoring World War II veterans and labor veterans in the Khorezm

region during the years of independence. The study highlights the main directions of state policy aimed at providing material and moral support to veterans, strengthening their social protection, preserving historical memory, and educating the younger generation in the spirit of patriotism. It also examines the role of the “Nuroniy” Foundation, mahalla institutions, civil society organizations, memorial infrastructure, the education system, and mass media in this process. The experience of the Khorezm region is evaluated as a comprehensive socio-spiritual model for honoring veterans.

Keywords: World War II, veterans, labor veterans, historical memory, Khorezm region, social protection, patriotism, “Nuroniy” Foundation, memorial infrastructure, spiritual and educational policy.

KIRISH

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari hamda mehnat faxriylarini e’zozlash tizimi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yo‘nalish mamlakatda inson qadri, tarixiy xotira va avlodlar davomiyligini ta’minlashga qaratilgan siyosiy-ijtimoiy tamoyillarning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, Xorazm viloyati misolida faxriylarni qo‘llab-quvvatlash va ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hududiy ijtimoiy siyosatning samarali modelini shakllantirdi.

Mazkur tizim dastlab faqat moddiy yordam bilan cheklanmay, keyinchalik kompleks ijtimoiy himoya tizimi sifatida rivojlandi. Unda faxriylarning pensiya va nafaqa ta’minotini yaxshilash, moddiy yordam ko‘rsatish, bepul tibbiy xizmatlar bilan ta’minlash, sanatoriy yo‘llanmalari ajratish, uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash kabi chora-tadbirlar muhim o‘rin egalladi. Shu bilan birga, tizim doirasida ma’naviy qo‘llab-quvvatlash masalalariga ham katta e’tibor qaratildi. Faxriylarni turli bayram va tadbirlarga jalb etish, ularning faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish hamda yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qilindi. Bundan tashqari, faxriylarning mahalla, jamoat tashkilotlari va ta’lim muassasalari faoliyatidagi ishtiroki qo‘llab-quvvatlanib, ularning jamiyatdagi faolligini saqlab qolish hamda yoshlar tarbiyasida boy hayotiy tajribasidan samarali foydalanish mexanizmi shakllantirildi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat faxriylarini e’zozlash tizimi davlat ijtimoiy siyosatining muhim,

insonparvar va barqaror yo‘nalishiga aylandi. Mazkur tizim moddiy yordam, ma’naviy qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyat integratsiyasi orqali faxriylarning ijtimoiy maqomini mustahkamlash, tarixiy xotirani asrash va milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda katta ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning xotirasini abadiylashtirish hamda tarixiy adolatni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etildi [1]. Ushbu yo‘nalish Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda mahalliy ijro organlari hujjatlari asosida tizimli ravishda amalga oshiriladi. Xususan, 2023-yil 2-maydagi PF–65-son Farmon bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga bir martalik 18 000 000 so‘m miqdorida pul mukofoti belgilangan bo‘lib, ushbu mablag‘lar respublika budjeti hisobidan moliyalashtiriladi [2]. Ushbu hujjat urush faxriylarini moddiy rag‘batlantirish tizimining institutsional asosini mustahkamladi.

2025-yil 19-fevraldagi Prezident farmoni bilan urush qatnashchilari va nogironlariga 10 000 AQSH dollari, ularga tenglashtirilgan shaxslarga 25 mln so‘m hamda mehnat fronti qatnashchilariga 3 mln so‘m miqdorida bir martalik moddiy yordam belgilandi. Bu esa faxriylarni e’zozlash siyosatining xalqaro ijtimoiy standartlarga yaqinlashayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-dekabrdagi 335-son qarori asosida tarixiy va madaniy qimmatga ega obyektlarni garov va ipoteka predmetiga aylantirish taqiqlanib, tarixiy merosni huquqiy himoya qilish mexanizmi mustahkamlandi.

Xorazm viloyatida shakllangan tizim faxriylarni moddiy rag‘batlantirish, tibbiy va sanatoriy xizmatlari bilan ta’minlash, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy patronaj xizmatlarini yo‘lga qo‘yish hamda bayram va yubiley tadbirlarida ularni e’zozlash kabi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oldi [3]. Mazkur tizim “Nuroniy” jamg‘armasi, mahalla institutlari va davlat organlari hamkorligi asosida amalga oshirilib, faxriylar bilan ishlashning samarali institutsional mexanizmini shakllantirdi. Xorazm viloyati tajribasi faxriylarni moddiy va ma’naviy jihatdan uyg‘un qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy siyosatning insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslangan kompleks tizimga aylanganini ko‘rsatdi. Natijada faxriylarning hayot sifati, ijtimoiy himoyasi va jamiyatdagi nufuzi mustahkamlandi. Xususan, “E’zoz” dasturi doirasida yolg‘iz yashovchi faxriylarning turmush sharoiti, sog‘lig‘i va ehtiyojlarini muntazam monitoring qilish tizimi joriy etildi. Shu asosda ularga ijtimoiy xodimlar biriktirilib, patronaj xizmatlari yo‘lga qo‘yildi. Mazkur tizim moddiy yordam bilan birga tibbiy, maishiy, huquqiy va ma’naviy ko‘makni ham qamrab olib, faxriylarning ijtimoiy yolg‘izlanishini oldini olishda

muhim аҳамият kasb etdi. Shuningdek, Ramazon va Qurbon hayiti arafasida oziq-ovqat paketlarini yetkazib berish amaliyoti faxriylarni e’zozlashning muhim ko‘rinishiga aylandi. Bu esa jamiyatda mehr-oqibat, saxovat va kattalarga hurmat kabi milliy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qildi.

Shuningdek, Ikkinchi jahon urushidagi g‘alaba yubileylari munosabati bilan faxriylarni esdalik medallari, faxriy nishonlar hamda turli rag‘batlantiruvchi sovg‘alar bilan taqdirlash amaliyoti keng joriy etildi [4]. Mazkur tadbirlar tarixiy xotirani asrash, urush va mehnat faxriylarining jasorati hamda fidoyiligini yosh avlod ongiga singdirishda muhim ijtimoiy-tarbiyaviy аҳамият kasb etdi. Shu orqali faxriylarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi mustahkamlanib, ularning hayotiy tajribasi va ma’naviy merosini qadrlashga alohida e’tibor qaratildi. Xorazm tajribasi davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligiga asoslangan samarali model sifatida namoyon bo‘lib, ijtimoiy himoyani ma’naviy e’zoz va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirdi.

Shuningdek, viloyatda urush qatnashchilari va qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida memorial infratuzilma shakllantirildi. Urganch shahridagi “Xotira maydoni”, tumanlardagi memorial majmualar hamda “Motamsaro ona” haykali tarixiy xotirani saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishning muhim vositalariga aylandi [5]. Mazkur maskanlar nafaqat bayram tadbirlari, balki kundalik ma’naviy ziyorat joylariga aylangan. Urush qatnashchilari ism-shariflari qayd etilgan “Xotira kitoblari” va zarhal yozuvli yodgorlik lavhalar tizimi shakllantirilgan. Bu yodgorliklar tarixiy xotirani hujjatlashtirish va tizimlashtirish vazifasini bajaradi [3]. 2017-2025-yillar davomida ushbu maskanlarni modernizatsiya qilish ishlari olib borilib, landshaft dizayni, yoritish tizimlari va rekreatsion hududlar yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida milliy tarixiy qahramonlar xotirasini Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari xotirasi bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan yondashuv tarixiy vorisiylik va milliy birlikni mustahkamlashda muhim аҳамият kasb etdi. Bu orqali turli davrlardagi qahramonlik an’analari yagona milliy g‘oya asosida talqin qilinib, yosh avlod ongida tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllantirildi. Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur kabi tarixiy siymolarning jasorat, sadoqat va fidoyilik fazilatlari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari hamda mehnat faxriylarining hayoti bilan uyg‘un holda talqin qilindi. Natijada qahramonlik millat taraqqiyotining uzluksiz ma’naviy qadriyati sifatida namoyon bo‘ldi.

Shuningdek, Jaloliddin Manguberdi majmuasi va Amir Temur bog‘lari hududida faxriylar uchun dam olish maskanlari hamda xotira xiyobonlari tashkil

etildi. Bu maskanlar nafaqat hordiq chiqarish joyi, balki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va xotira kechalarini o‘tkazish orqali tarixiy xotirani saqlash va yoshlar tarbiyasini kuchaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, ular faxriylarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish va milliy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlashning muhim vositasiga aylandi.

Xorazm viloyatida milliy tarixiy qahramonlar xotirasini Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari xotirasi bilan uyg‘unlashtirish tajribasi tarixiy vorisiylikni mustahkamlash, milliy o‘zlikni chuqurlashtirish va ma’naviy siyosat uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiluvchi samarali model sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur yondashuv tarixiy xotirani zamonaviy ijtimoiy siyosat bilan bog‘lab, jamiyatning ma’naviy barqarorligini kuchaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, muzeylar va ta’lim muassasalarida “Shuhrat burchaklari” hamda urush qatnashchilarining hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ekspozitsiyalar tashkil etilib, yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va tarixiy xotiraga hurmat ruhida tarbiyalashning muhim vositasiga aylandi [6]. Bu tizim tarixiy qahramonlik va zamonaviy vatanparvarlik tushunchalarini birlashtirgan integratsion model sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarida faxriylar bilan ishlash tizimi o‘quv-tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Har yili “Mustaqillik darslari” va “Xotira darslari” doirasida faxriylar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etiladi [7]. O‘quvchilar o‘rtasida ijodiy insholar tanlovlarini tashkil etish tarixiy xotirani shakllantirish, yosh avlod ongida vatanparvarlik va ajdodlar jasoratiga hurmat tuyg‘ularini rivojlantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Xususan, “Mening mahallamdagi qahramon”, “Bobomning jasorati - mening faxrim” kabi mavzularda o‘tkaziladigan insholar tanlovi o‘quvchilarning o‘z hududidagi tarixiy shaxslar, urush va mehnat faxriylari hayoti, ularning jasorati hamda fidoyilik faoliyatiga nisbatan qiziqishini oshiradi [8]. Mazkur model shukronalik, vatanparvarlik va tinchlik qadriyatlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U yoshlarga tarixni faqat darslikdagi voqelik emas, balki o‘z oilasi va mahallasi bilan bog‘liq jonli xotira sifatida anglash imkonini beradi. Natijada tarixiy tafakkur, milliy o‘zlik va shaxsiy identifikatsiya jarayonlari chuqurlashadi.

Ijodiy insholar tanlovi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki tarix manbalarini yig‘ish va ularni yozma shaklda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Faxriylar bilan suhbatlar va oilaviy xotiralarni o‘rganish orqali yoshlar tarixiy manbalarni bevosita idrok etadi. Bu esa lokal tarix va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvning samarali qo‘llanilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, “Uch avlod uchrashuvlari” tizimi tarixiy xotirani avlodlararo muloqot orqali uzatishning

samarali modeli sifatida shakllandi. Ushbu uchrashuvlarda faxriylar hayotiy tajribasini ulashsa, o‘rta avlod vakillari kasbiy va fuqarolik tajribasi bilan muloqotni boyitadi, yoshlar esa bu ma’naviy merosni davom ettiruvchi avlod sifatida ishtirok etadi. Bu jarayon shukronalik, tinchlik va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlash bilan birga, jamiyatda birdamlik va hamjihatlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, Xorazm viloyatida faxriylar xotirasini targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalari ham muhim o‘rin tutadi. Mahalliy gazeta va televideniyeda maxsus ruknlar, hujjatli ko‘rsatuvlar hamda intervyular muntazam yoritilib, faxriylarning jasorati va hayot yo‘li keng jamoatchilikka yetkazib boriladi [9]. “Xorazm haqiqati” va boshqa nashrlarda urush qatnashchilari jasorati hamda ularga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy e’tibor yoritib boriladi [10]. Televideniye orqali “Inson qadri” kabi ko‘rsatuvlar tayyorlanib, faxriylarning shaxsiy xotiralari va arxiv materiallari jamoatchilikka taqdim etiladi. Ilmiy sohada esa ushbu mavzu tarixiy xotira va ijtimoiy siyosat kontekstida chuqur o‘rganilmoqda. Arxiv materiallari asosida dissertatsiyalar himoya qilinib, “Xotira” nomli ko‘p jildli ilmiy nashrlar yaratilgan [3].

XULOSA

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat faxriylarini e’zozlash tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib, kompleks ijtimoiy va ma’naviy siyosatning barqaror modeliga aylandi. Ushbu tizim faxriylarni moddiy qo‘llab-quvvatlash, sog‘lig‘ini muhofaza qilish, maishiy ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash orqali ularning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qildi. Bundan tashqari, tarixiy xotirani saqlash va qahramonlik an’analarini avlodlarga yetkazishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tizimning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Xotira maydonlari, memorial majmualar, yubiley tadbirlari va faxriylar bilan uchrashuvlar tarixiy ongni mustahkamlashga xizmat qildi. Ta’lim tizimida esa faxriylarning hayotiy tajribasi yosh avlod uchun vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati namunasi sifatida targ‘ib qilindi.

Shuningdek, ijodiy insholar tanlovlari va “Uch avlod uchrashuvlari” tarixiy xotirani avlodlararo uzatishning samarali pedagogik modeli sifatida shakllandi. Ommaviy axborot vositalari va ilmiy tadqiqotlar esa faxriylar hayoti hamda faoliyatini keng yoritish orqali tarixiy xotiraning jamiyat ongida mustahkamlanishiga xizmat qildi. Xorazm tajribasining yana bir muhim jihati milliy tarixiy qahramonlar xotirasini Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari xotirasi bilan uyg‘unlashtirishdir. Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur kabi tarixiy siymolar timsolida vatanparvarlik va jasorat g‘oyalari faxriylar faoliyati bilan bog‘liq holda talqin qilinib, milliy o‘zlik va tarixiy vorisiylik mustahkamlandi.

Umuman, Xorazm viloyatida shakllangan faxriylarni e’zozlash tizimi davlat, mahalla institutlari, “Nuroniy” jamg‘armasi va fuqarolik jamiyati hamkorligiga asoslangan barqaror ijtimoiy model sifatida tarixiy xotirani asrash, milliy birdamlikni mustahkamlash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy аҳамият kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida. - Toshkent, 2016-yil 26-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida (1991-2025-yillardagi tegishli yillar kesimidagi farmonlar). - Toshkent.
3. Xotira: O‘zbekiston xalqi Ikkinchi jahon urushida. Ko‘p jildlik. Xorazm viloyati jildi. - Toshkent: O‘zbekiston, 1999-2005.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida. - Toshkent.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2011. - 440 b.
6. Xorazm tarixi. Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha. 2-jild. - Urganch: Xorazm, 1997.
7. Davletov S., Sobirov Q. Xorazmda ijtimoiy-madaniy hayot va ta’lim islohotlari (Mustaqillik yillari misolida). - Urganch, 2015.
8. “Nuroniy” jamg‘armasi axborotnomasi. Uch avlod uchrashuvlari - ma’naviy vorisiylik asosi. - Toshkent, 2021.
9. Abdullayev M. Xorazm viloyatida urush faxriylariga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy g‘amxo‘rlikning huquqiy asoslari // O‘zbekiston tarixi. - 2018. - № 3.
10. Xorazm haqiqati. 1991-2025-yillardagi 9-may sonlari (arxiv materiallari).

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA